



Hadis tizimida ayollar muammolari mavzusi shakillanishining tarixiy va falsafiy-germenevtik asoslari

Ulfatillayeva Sayyora Sobirjon qizi

O'ZMU "Falsafa va mantiq" kafedrası doktoranti

Hadis tizimida ayollar muammolari mavzusi, islomiy qonun va ahloqiy hukmlarning o'rganilishi jarayonida muhim ahamiyatga ega. Ushbu mavzu, nafaqat diniy balki tarixiy va falsafiy jihatdan ham keng qamrovda tahlil etilishni talab qiladi.

Islomdan avvalgi arab jamiyatida ayollar maqomi past edi. Islom kelishi bilan, bu holat o'zgarib boshladi. Qur'onda ayollarning huquqlari belgilangan va ularga ko'plab erkinliklar berilgan. Muhammad Payg'ambar ayollarning maqomini oshirishga intilib, hayotiy fazilatlarini va axloqlarini yuqori baholagan

Muhammad Payg'ambardan rivoyat qilingan hadislar ayolning maqomi, roli va oila ichidagi ijtimoiy ahamiyatini belgilab beradigan yangiliklar kiritgan. Ayollar haqidagi hadislar, ularning huquqlari, fuqarolik va ijtimoiy majburiyatlari haqida ma'lumot beradi.

Ayollar haqidagi hadislar, hukm andozalari va fiqhiy qonunlarni belgilagan. Imom Malik va Imom Shofe'i kabi ulamolar, ayollarning huquqlari va majburiyatlari masalasida qat'iy fikrlarni bildirib, ularning qoidalarini o'rganish jarayonida xususiyatlarni ko'rib chiqqan.

Germenevtik tahlil - Hadislar orqali ayollar haqidagi tushunchalar, yondashuvlar va ma'lumotlar orqali, mutafakkirlar hadislarning ma'nolarini ma'lum bir kontekstda talqin qilishi zarur. Bu, ularning ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Ba'zi zamonaviy mutafakkirlar, islomiyatdagi ayollarning haq-huquqlarini o'rganish jarayonida, postkolonyal nazaridan foydalanadi. Bu yondashuv, islomiy g'oyalarning zamonaviy feministik yondashuvlar bilan bog'liqligini o'rganishga qaratilgan.

Imom Buxoriyning hadislarini zamonaviy nuqtai nazardan o'rganish unga tarixiy, tahliliy, falsafiy, komparativistik, germenevtik yondashuvlarni talab qiladi. Ilmiy talqin qilishning turli usullari mavjud, ammo matnlarni sharhlash va talqin qilish yanada nozik va keng qamrovli tushunish uslubi talab qilinadi.



Islom tarixida ayollar muammolari mavzusi shakllanishining o'ziga xos e'tiborli jihatlari mavjud. Musulmon olimlari bu mavzuni yoritish, unga tegishli masalalarning yechimlarini topish, mavzuni ilmiy tadqiq etish, asoslarini nazariy-metodologik yoritish borasida ko'plab ishlarni amalga oshirganlar.

Imom Buxoriyning "Sahihi Buxoriy" asarida jamlangan to'g'ri hadislar orasida ayollarga bag'ishlangan bo'limlar ayollarga turli sohadagi yengilliklar yaratilganligini ko'rsatadi, jumladan:

Ilm kitobida ayollarga ilm olishda yengilliklar yaratish, bu borada turli imkoniyatlar yaratib berish, ayol va erkakning ilm olish xuquqlari tengligi yoritilib beriladi.

Ilm kitobi 33-bobida Ibn Abbosdan rivoyat qilingan 98-hadisa:

"Rasululloh (s.a.v.) Bilol bilan birga ayollar qoshiga chiqdilar. Bilol: "Janob Rasululloh (s.a.v.) ayollar gapini eshitmay qoldilar",- deb o'ylovdilar. Lekin Rasululloh (s.a.v.) ayollarga va'z aytdilar, so'ng ularni sadaqa berishga da'vat qildilar. Ayollar sirg'a va uzuklarini yechib, Bilolning etagiga tashlay boshladilar"¹.

Hayotlik paytida Muhammad payg'ambar ayollarga o'zlari va'z o'qiganlari, ilm berganlari- ilm olishda ayollarning ham xuddi erkaklar kabi xaqqi bor degan fikrni isbotladi. Ayollarni ham sadaqa berishga da'vat etdilar va bu orqali ayollar ham o'z gunohlari kafforati uchun, savob olishlari uchun sadaqa bera oladilar hamda bu bilan ular ham savobga erishishlari mumkin ekanligini amalda isbotlab berdilar.

Ushbu hadis, Muhammad payg'ambarning ayollarga qaratilgan e'tiborini, ularning jamiyatdagi rolini va ehson qilishdagi muhimligini ifodalaydi. Hadis ayollarning diniy, ijtimoiy va iqtisodiy masalalardagi roli haqida muhim xulosalar chiqarishga yordam beradi. Keling, hadisni hozirgi zamon bilan aloqasi nuqtai nazaridan tahlil qilaylik:

Hadisda Muhammad payg'ambar ayollarga o'zlari va'z aytishlari orqali ularning ruhiy, ilmiy va diniy tarbiyasiga e'tibor qaratmoqda. Bu hozirgi kunda jamiyatda ayollarni diniy va dunyoviy o'qitishda qo'llab-quvvatlashni ko'rsatadi. Bugungi kunda ham ayollar o'z diniy va ilmiy bilimlarini oshirishlari va umumat bilan birga bo'lishlari muhimdir.

Muhammad payg'ambar ayollarga sadaqa berishga undash orqali ularni ijtimoiy mas'uliyatlarini bajarishga chaqiradi. Bu holat, ayollarning ijtimoiy hayotda, moliyaviy va madaniy jihatdan faol bo'lishini namoyon etadi. Zamonaviy

¹ "Al-Jomi' As-Sahih" Ilm kitobi 33-bobi

jamiyatda, ayollar o'z moli bilan nafaqat oilasini, balki umuman jamoalarini ham qo'llab-quvvatlaydilar.

Hadisda ayollar o'z zargarlik buyumlarini, ya'ni sirg'a va uzuklarini berdi. Bu, jamiyatda ayollarning harakat va ishonch bilan ishtirok etishlarini ko'rsatadi.

- Sadaqa madaniyati: Hadisda Muhammad payg'ambar sadaqa berishda ayollarni birlashtirishga harakat qila boshlaydi. Bugungi kunda ham, ijtimoiy masalalarda jamiyatni faol qilishda va odamlarni hamjihat bo'lishga undashda ayollarning roli juda muhim.

- Ayollarning o'zaro hamkorligi: Hadis, ayollar o'rtasida o'zaro hamkorlik va bir-birini qo'llab-quvvatlash muhimligini ta'kidlaydi. Zamonaviy ishbilarmonlikda, ijtimoiy guruhlar va tashkilotlar o'rtasida ayollarning kuchli hamkorliklariga ko'rsatmalar beradi.

Xulosa, ushbu hadis, ayollarning jamiyatdagi ro'li va ishtirokini, shuningdek, ularning hayotda o'z o'rnini qanday aniqlashiga ahamiyat beradi. Qur'ondan keltirilganidek, ayollar mustaqil ravishda o'z huquqlari, ijtimoiy va moliyaviy mas'uliyatlaridan foydalanishlari lozim. Hadis, kelajakda ayollar yanada kuchliroq, ta'sirchan va bir-birini qo'llab-quvvatlovchi ruhda bo'lishiga ilhom beradi. Zamonaviy dunyoda ular o'zlarining salohiyatlarini to'g'ri anglab, jamiyatda faol ishtirok etishlari kerak.

36-bobning 101-102-hadislarida esa:

Abu Said Xudriydan: "ayollar Muhammad Payg'ambarga: "Erkaklar sizdan har kuni ilm o'rganishmoqda, bizga ham bir kun ajrating",-deyishdi. Muhammad payg'ambar bir kunni tayinlab, o'sha kun kelgach ularga va'z nasixat aytdilar, ba'zi diniy ishlarni buyurdilar: "Ey xotinlar, orangizda 3 ta bolasi o'lgan birorta ham xotin bo'lmasa kerak, mabodo bo'lsa, uni o'sha bolalari parda bo'lib do'zax o'tidan asraydi",- dedilar. Shunda bir xotin: " 2 ta bo'lsachi ?"- dedi. Muhammad payg'ambar : " 2 ta bo'lsa ham",- dedilar (bu gap otaga ham taalluqlidir)"².

Ayollarni xurmat qilganlaridan ularni ham ilm olishiga o'zlari sharoit yaratib bir kunni ayollar uchun ajratdilar va o'sha kunlarda ayollarga va'z-nasixatlar o'qidilar. Ushbu hadis, Muhammad payg'ambarning ayollarga ilm berish va diniy masalalarda nasihat qilishiga e'tibor qaratadi. Hadis, shuningdek, onalik haqidagi tushunchalar va ta'lim berishning ahamiyatini ta'kidlaydi. Keling, ushbu hadisni zamonaviy kontekstda ko'rib chiqaylik.

² Олтин силсила: 1-жуз: Сахиҳул Бухорий- Тошкент "Ҳилол-Нашр", 2016. 248-249-бетлар

Ayollarga ta'lim berish. Hadisda ayollar, Muhammad payg'ambardan ilm olishni xohlayotganliklari haqida so'z yuritadilar. Bu, musulmon ayollarining ta'lim olish huquqini yaxshi anglatadi. Zamonaviy jamiyatda, ayollar uchun ta'lim imkoniyatlarini oshirishning ahamiyati yuqori. Bugungi kunda, ayollar o'z bilimlarini oshirish va ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy masalalarda faol ishtirok etishlari juda muhimdir.

Onalik va bolalarning muqaddasligi. Hadisda 3ta va 2ta bolasi o'lgan ayollardan so'z boradi va ularning do'zax o'tidan saqlanishi haqida gapiriladi. Bu onalikning qadri va bolalarga e'tibor qaratish zarurligini anglatadi. Zamonaviy kontekstdagi onalik, bolalarning tarbiyasi, ularga yaxshi sharoitlar yaratish va ularning sog'lom rivojlanishiga qaratilgan e'tibor muhimligidir.

Ota-onalarning qadri: Bugungi kunda bolalar tarbiyasi va xo'jalik masalalarida faqat ayollar emas, balki erkaklar ham faol ishtirok etishlari zarur. Onalik va otalik roli, jinsi va ijtimoiy kontekstdan qat'iy nazar, bir-birini to'ldirishi lozim.

O'zaro munosabatlar va ijtimoiy rol. Hadis, ayollarning jamiyatdagi roli va ularning bir-birlariga yordam berishlari faoliyati haqida ko'rsatadi. Ayollar o'rtasidagi muloqot va yordam, ijtimoiy barqarorlik va o'zaro hamkorlikni mustahkamlaydi.

O'sha paytdagi ayollarning Muhammad payg'ambardan bilim olish istagi, bugungi kunda ham amaliy ko'rinishga keladi. Ayollar muloqoti va maslahatlar berish, zamonaviy musulmon jamiyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Muhammad payg'ambar ayollarga ilm berishga alohida e'tibor qaratgan, bu bugungi kunda ham ta'lim olish va ta'lim berishga vaqt ajratish muhimligini ko'rsatadi. Har bir inson, o'z bilimini oshirishga va rivojlanishga vaqt ajratishi zarur.

Xulosa qilib aytganda ushbu hadis, ayollarga ilm berishga e'tibor qaratadi, bolalar tarbiyasining ahamiyatini ta'kidlaydi va ijtimoiy hamkorlikni rag'batlantiradi. Zamonaviy kontekstdagi har bir musulmon ayoli, o'z huquq va majburiyatlarini anglaydigan, ilmga chanqoq, ta'limga e'tibor beradigan bo'lishi lozim. Hadis, shuningdek, oilaviy munosabatlar va onalik roli haqida zamonaviy jamiyatda yangicha yondashuvlarni o'rganishni rag'batlantiradi. Ayollar, ilm olish va umuman jamiyatda faol ishtirok etish orqali ta'lim berish, tarbiya va mahalliy hamjamiyatni rivojlantirishda muhim rol o'ynashlari kerak.

Bundan tashqari "Sahihul Buxoriy"ning Juma kitobida Juma kunidagi g'uslning fazli, yosh bola yoki ayollarga juma kuni (namozga) hozir bo'lish vojibliigi, Jumaga bormaydigan ayollar, bolalar va boshqalarga g'usl lozimligi haqida so'z boradi. Juma kitobining 2-bobi juma



kunidagi g‘uslning fazli; yosh bola yoki ayollarga juma kuni (namozga) qatnashish vojibmi? - deb nomlanishining sababi balog‘at yoshiga yetmagan yosh bolalar hamda ayollarning juma namoziga borishi vojibli haqida ulamolar o‘rtasida nizo, turli qarashlar borligi bo‘lib, muallif bobning nomini savol shaklida keltirgan.

Kusuf kitobida kusuf namozida ayollarning erkaklar bilan namoz o‘qishlari haqida.

Janozalar kitobida kishining qabr oldidagi ayolga «Sabr qil», deyishi, Ayolning sochini yozib yuborishi, ayollarning janozaga qatnashishi, ayol kishining eridan boshqaga aza tutishi, janozani ayollar emas, erkaklar ko‘tarishi, nifosida vafot etgan nifosli ayollarga janoza o‘qish, imom ayol yoki erkakning qayerida turishi haqida bir qancha hadislar keltirilgan.

Janozalar kitobining 30-bobi 1279-hadisda Muhammad ibn Sirindan rivoyat qilinadi:

“Ummu Atiyya (r.a)ning bir o‘g‘li vafot etdi. U uchinchi kuni sariq bo‘yli xushbo‘ylik keltirishni so‘radi. Keyin uni o‘ziga surtdi va: “Erdan boshqaga uch kundan ortiq aza tutishdan qaytarilganmiz”, dedi”³. Ushbu hadis, Ummu Atiyyaning o‘g‘lining vafoti bilan bog‘liq, azalarni qanday kutish kerakligini va nabiyning ko‘rsatmasi asosidagi qoidalarni anglatadi. Ayol o‘z farzandining o‘lishiga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishini va bundan so‘ng o‘zini qanday tutish kerakligini ko‘rsatadi.

1280. da esa Zaynab bint Abu Salamadan rivoyat qilinadi:

“Shomdan Abu Sufyon (r.a)ning o‘limi xabari kelganda, uchinchi kuni Ummu Habiba (r.a) sariq xushbo‘ylik keltirishni so‘rab, uni yonoqlari va bilaklariga surtdi va shunday dedi: “Muhammad payg‘ambarning “ Allohga va oxirat kuniga imon keltirgan ayol uchun biror mayyitga uch kundan ortiq aza tutishi halol bo‘lmaydi. Ammo eri bundan mustasno, chunki unga to‘rt oyu o‘n kun aza tutadi”, deganlarini eshitmaganimda, mening bunga hojatim yo‘q edi”⁴. Hadisda aytilishicha, “Erdan boshqaga uch kundan ortiq aza tutishdan qaytarilganmiz”. Bu, vafot tufayli azalarni tutish muddatining belgilanganligini ko‘rsatadi. Zamonaviy jamiyatda ham, xuddi shunday – insonlar o‘zlarining his tuyg‘ularini to‘g‘ri ifoda etishlari (masalan, azani tutish) lekin, vaqt o‘tishi bilan, normal hayotga qaytish kerakligini anglatadi. Hadis, sabrni o‘rganish va qayg‘u vaqtida xudo bilan bo‘lishni ta’kidlaydi. Zamonaviy hayotda sabrni qo‘llash, diniy birikmalar orqali noxush vaziyatlardan chiqishning muhim bir vositasi hisoblanadi

³ Олтин силсила: 2-жуз: Саҳиҳул Бухорий- Тошкент “Ҳилол-Насҳр”, 2016. 247-248-бетлар.

⁴ Олтин силсила: 2-жуз: Саҳиҳул Бухорий- Тошкент “Ҳилол-Насҳр”, 2016. 248-249-бетлар.

Bundan tashqari 1281,1282-hadislar xam xuddi shu ma'noda. Bundan ko'rinib turibdiki bu hadis sahih chunki bir emas bir nechta odam bir xil aytmoqda. Ya'ni ayol kishiga eridan boshqa odam uchun, xoh u otasi yoki onasi bo'lsin, aka yoki ukalari bo'lsin hatto farzandi bo'lsa ham uch kundan ortiq aza tutish harom deyilmoqda.

32-bobda esa aytib yig'lash haqida bir qancha hadislar keltirilgan, shu jumladan Zakot kitobida erining uyidan ziyon keltirmay sadaqa qilgan yoki yegulik bergan ayolning ajri, Muhammad payg`ambarning ayollari ozod qilgan qullarga sadaqa qilishi haqida;

Umni Bujayd (u ayol Muhammad payg`ambarga ga bay'at qilgan ayollardan edi) dan rivoyat qilinadi: "Muhammad Payg`ambarga aytdiki, «Agar miskin kishi kelib eshigimda turib olsa-yu, men unga beradigan biror narsa topa olmasam, nima qilaman?». Shunda Muhammad payg`ambar o'sha ayolga bunday dedilar: «Agar beradigan biror narsa topa olmasang, hech yo'qsa, bir kuydirilgan qo'y tuyog'i topib bo'lsa ham unga ber, uni tilanchining qo'liga tiqib qo'y!»⁵ Kuydirilgan qo'y tuyog'idan murod tilanchini eshikdan quruq qaytarmaslikdir. Oz yoki arziyas bo'lsa ham, imkon va mumkin bo'lgan narsani bermoq ma'nosini ifoda etadi.

Mujohiddan rivoyat qilinadi: «Ibn Umarning huzurida ekanimizda bunday dedi: «Muhammad Payg`ambar aytdilar: «Ayollarga kechqurun masjidga chiqmoqlari uchun izn beringizlar!». Shunda Ibn Umarning o'g'li: «Alloh haqi, izn bermaymiz! Buni yomon niyatlariga bahona qilib olishadi!», dedi. Shunda Ibn Umar aytdi: «Alloh senga bas kelsin, bas kelsin! Men: «Muhammad Payg`ambar aytdilar», deb turibman-u, sen «Izn bermaymiz» deysan-a!»⁶. Ibn Umarning o'g'li (Umar ibn Xattobning nevarasi) o'sha paytlarda ba'zi ayollarning fasodi (buzuqchiligi)ni ko'rib, musulmonlik nomini va ayollar nomusini muhofaza qilmoq tarzida shu so'zni aytgan.

Haj kitobida ayollarning erkaklar bilan birga tavof qilishlari, hayzli ayol baytni tavof qilishdan boshqa barcha amallarni ado etaverishi, Safo-Marva orasida tahoratsiz ham sa'y qilishi, hayzli ayolning ro'za va namozni tark etishi haqida;

E'tikof kitobida ayollarning e'tikof o'tirishi, istihozali ayolning e'tikofi, ayolning e'tikofdagi erini ziyorat qilishi, erkaklar yoki ayollar uchun kiyish makruh qilingan narsalarning tijorati haqida hadislar jamlangan;

⁵ Бурхониддин Марфиноний. Ҳидоя -Т. 1. – Т.: Адолат, 2000.

⁶ Абу Абдуллоҳ Муҳаммад Ибн Исмоил ал-Бухорий Ал-Жомий ас-саҳиҳ (Ишонарли тўплам). 4 жилдли. –Т.: Қомуслар бош тахририяти, 1995-1999.



Savdo kitobi erkaklar yoki ayollar uchun kiyish makruh sanalgan naesalarning tijorati, ayollar bilan oldi sotdi qilish haqida;

Guvohliklar kitobida ayollarning guvohligi va Allohning «...Agar ikki er kishi bo'lmasa, bir er kishi va ikki ayol kishi bo'lsin»⁷ degan so'zi, emizgan ayolning guvohligi, ayollarning bir birlarini adolatli deb guvohlik berishlari haqida;

Vasiyatlar kitobida ayollar va farzand ham qarindoshlarga kirishi, Allohning «Va yetimlarga o'z mollarini bering. Nopokni pokka almashtirmang. Ularning mollarini o'zingizning mollaringizga qo'shib yemang. Zero, bu katta gunoh erur. Agar yetimlarga adolat qila olmaslikdan qo'rqsangiz, o'zingizga yoqqan ayollardan nikohlab oling»⁸ degan so'zi haqida;

Jihad va yurishlar kitobida Ayollarning jihodi, ayol kishining dengizda g'azot qilishi, kishining ayollaridan birini qo'yib, boshqasini g'azotga olib borishi, ayollarning g'azot qilishi va erkaklar bilan birga jang qilishi, g'azotda ayollarning odamlarga mesh ko'tarib borishi, g'azotda ayollarning yaradorlarni davolashi, ayol kishini akasining orqasiga mingashtirish, kishi bir qo'shinga yozilgan bo'lib, uning ayoli haj niyatida yo'lga chiqsa yoki o'zining biror uzri bo'lsa, unga izn berilishi, urushda ayollarni o'ldirish, jarohatni bo'yra kuydirib davolash, ayol kishining o'z otasining yuzidan qonni yuvishi va siparda suv tashish haqida;

Jizya kitobida ayollarning omonlik berishi va himoyaga olishi haqida tushunchalar berilgan, yaratilgan yengilliklar bayon etilgan.⁹ Shuni eslatib o'tish kerakki, bu hadislar faqatgina ayollar uchun emas, balki barcha musulmonlar uchun qo'llanilishi mumkin. Bu hadislar Islomning ayollarga nisbatan adolatli va hurmatli munosabatini aks ettiradi.

Bundan tashqari, Imom Buxoriyning hadislarida ayollarning ta'siri, aqliy qobiliyati va jamiyatdagi o'rni haqida ham ijobiy ma'lumotlar mavjud. Ular ayollarning ta'lim olish, ishga kirish va jamiyatga hissa qo'shish huquqini qo'llab-quvvatlaydi.

Shuning uchun, "Sahihi Buxoriy" ayollarga nisbatan adolatli va hurmatli munosabatni targ'ib qiladigan qimmatli manba hisoblanadi.

2017 yilda Qohira shahrida Misrdagi "Al-Azhar Ash-Sharif" hay'at a'zolari bo'lgan ulamolaridan bir guruhi, ya'ni Shayx Jodul Haqq Ali Jodul Haqq, Doktor Muhammad Sayyid Tantoviy, Shayx Muhammad G'azzoliy, Doktor Ali Jum'alar

⁷ Абу Абдуллох Муҳаммад Ибн Исмоил ал-Бухорий Ал-Жомий ас-саҳиҳ (Ишонарли тўплам). 4 жилдли. –Т.: Қомуслар бош таҳририяти, 1995-1999.

⁸ Нисо сураси 2-оят

⁹ Абу Абдуллох Муҳаммад Ибн Исмоил Бухорий. Ал-Жомий ас-саҳиҳ (Ишонарли тўплам). 4 жилдли. –Т.: Қомуслар бош таҳририяти, 1995-1999.



hammuallifligida “Al-mar’a fil manzur al-islamiy” nomli 59 betdan iborat kitob nashr etildi.

Ushbu kitobda mua’lliflar tomonidan ayol zoti, uning insoniyat hayotidagi ijtimoiy o’rni va roli haqida qator fikrlar bildiriladi. Ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

Ayol avvalambor ona, rafiq va qiz farzad timsoli bo’lib inson hayotiga ma’no mazmun kirituvchi zot. Ayol erkak kishi fikrlari va maslakarini bevosita ishtirokchisi. U erkak kishidan moddiy va ruhiy madad, ijtimoiy va oilaviy turmushda mehr-muhabbat, vafo, sadoqat, rostgo’ylik, adolat, tenglik va tinchlik kutuvchi zaifa. Ayol tinch-totuv jamiyat, baxtli va ahil oila, sog’lom farzandlar hamda farovon kelajak qurilishining fidokor ishtirokchisi. Ayol hayotning ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy, ma’rifiy, siyosiy, diniy, axloqiy, ruhiy, gender jabhalarida erkaklar bilan bir qatorda teng ishtirok etuvchi inson. Va o’z navbatida u o’z haqu-huquqlarini himoya qilish yo’lida kurasha olish iqtidori va quvvatiga ega inson. Bu fikrlar ayolning hayotimizdagi ishtiroki va ahamiyati qanchalar muhimligini ko’rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Buyuk yurt allomalari – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. - 422 b.
2. Buyuk siymolar, allomalar: O‘rta Osiyolik mashhur mutafakkirlar va donishmandlar. K.1. – Toshkent: O‘zbekiston, 1995. – 100 b.
3. Badr-al-Din Badri Kašmīri, Serāj-al- šāleħin, ed. Saed Serāj-al-Din, Islamabad, 1376 Š./1997.
4. Baranov X. K. Arabsko-ruskiy slovar: ok. 42 000 slov. — 3-ye izd. — M., 2001
5. Imom Buxoriy ta’rifi /G’oya muallifi Sh.Umarov – Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro markazi, 2018. – 320 b.
6. Imom Buxoriy «Al-adab al-mufrad» / Tarjimonlar Sh.Boboxonov, N.Abdumajid – Toshkent: Movarounnahr, 2006
7. Imom Buxoriy «Al-adab al-mufrad» (Odob-axloqqa oid hadislar.Saylanma)//Tuzuvchilar: Z.Islomov, A.Abdullaev – Toshkent: Toshkent Islom universiteti, 2008.
8. Imom Buxoriy Al-Jome’ as-Sahih. /Z.Ismoil tarjimasi. 1 -jild – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1991.



9. Imom Buxoriy Al-adab al-mufrad (Adab durdonalari). – Toshkent, O‘zbekiston, 1990.

10. Олт
ин силсила: 1-жуз: Саҳиҳул Бухорий- Тошкент “Ҳилол-Нашр”, 2016. 248-
249-бетлар